

SAN'ATSHUNOS OLIMA AZATGUL TASHMATOVA IJODIY FAOLIYATIGA BIR NAZAR

S.N.ISROILOVA

O'zbekiston davlat konservatoriyasi

“Xalq cholg'ularida ijrochilik” kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola serqirra ijodkor, mohir sozanda, mahoratli dirijyor, malakali pedagog, milliy sozlarimizning faol targ'ibotchisi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a'zosi, “Shuhrat” medali hamda “Madaniyat va san'at fidokori” ko'krak nishoni sohibasi, san'atshunoslik fanlari doktori, professor Tashmatova Azatgul Rahimovnaning cholg'u ijrochiligi san'ati rivojiga qo'shgan hissaga bagishlangan. Maqola muallifi o'z ustozlari tomonidan yaratilgan o'quv adabiyotlari va monografiyalarining mazmun-mohiyati, ularning barkamol avlod tarbiyasidagi ahamiyatini hamda O'zbekiston musiqa madaniyatidagi o'rnini ta'kidlab bergan.

Kalit so'zlar: Xalq cholg'ulari, ilmiy-targ'ibot, ilmiy-tadqiqot, teleopera, sharqona mazmun, cholg'ushunoslik, o'quv adabiyotlari, monografiya, turdosh cholg'ular, mizrob, ko'p ovozlilik, jo'navozlik, yakkanavozlik, kompozitor, ansambl, orkestr.

Annotation: A detailed study and analysis of the life and creative activity of the talented and brilliant scientist Tashmatova Azatgul Rakhimovna, as well as her contributions to the development of the art of musical performance. Tashmatova Azatgul Rahimovna, a candidate of arts sciences, a skilled musician, a skilled conductor, a qualified pedagogue, a member of the Union of Composers and Composers of Uzbekistan, an active promoter of our national songs, is a musical instrument with her brilliant creative activity and innovative ideas. made a great contribution to the development of performance art.

Keywords: Folk instruments, scientific-propaganda, scientific-research, teleopera, Eastern content, Instrumental studies, Oriental instruments, related instruments, dutar bass, tessitura, mezrob, polyphony, chorus, solo, ensemble, orchestra.



San'atshunoslik fanlari nomzodi, mohir sozanda, mahoratli dirijyor, malakali pedagog, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a'zosi, milliy sozlarimizning faol targ'ibotchisi Tashmatova Azatgul Rahimovna o'zining serqirra ijodiy faoliyati va innovatsion g'oyalari bilan cholg'u ijrochiligi san'ati rivojiga katta hissa qo'shib kelmoqda. U musiqashunos olim sifatida o'tgan asrning 90-yillarida musiqa olamiga kirib keldi va bir qator ijodiy muammolar yechimini topishga sidqidildan mehnat qildi.

Serqirra ijodkor Azatgul Tashmatova rahbarlik, pedagoglik, jamoatchilik, ilmiy-targ'ibot, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bir qatorda ilmiy-ijodiy ishlar bilan ham parallel ravishda faoliyat olib bormoqda. Shu kunga qadar yaratgan barcha darslik, o'quv qo'llanma, katalog va monografiyalari o'quv amaliyotga keng joriy etilgan hamda soha mutaxassislari, talabalar va keng qamrovli kitobxonlar tomonidan sevib mutolaa qilinmoqda.



Azatgul Tashmatova tomonidan yaratilgan ilk “Musiqiy cholg’ular muzeyi katalogi” 2006 yilda uch (o‘zbek, rus, ingliz) tilda nashr yuzini ko‘rgan bo‘lib, unda hozirgi kunda o‘quv amaliyotida qo‘llanilayotgan cholg’ularning an’anaviy va zamonaviy turlari haqidagi qiziqarli ma’lumotlar bayon etilgan [1, 12]. Katalogdan joy olgan cholg’ular rangli tasvirda berilganligi bois, kitobxonlar etiborini bir qarashdayoq o‘ziga jalb etadi. Mazkur Katalog maktabgacha ta’lim muassasalari, bolalar musiqa va san’at maktablari, umumta’lim maktablarida “musiqa” darsida, musiqa kollejlari va “Cholg’ushunoslik” fanidan, oliy o‘quv yurtlari va O‘zbekiston

davlat konservatoriyasida “Ijrochilik san’ati tarixi”, “Xalq cholg’ularida o‘qitish uslubiyati”, “Xalq cholg’ulari bilan tanishuv” fanlari bo‘yicha o‘quv qo‘llanma sifatida keng qo‘llanilmoqda.

Katalog kelgusi avlod va musiqa ixlosmandlarini ota-bobolarimizdan asrlar osha bizgacha yetib kelgan bebaho milliy musiqiy merosimiz bilan yaqindan tanishtirishga imkon yaratadi. Shu bilan birga cholg’u ijrochiligi san’ati bilan qiziqayotgan mutaxassislar, doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar, magistrlar va albatta xorijiy mutaxassislar ham buyuk allomalarimiz Farobiy, Jomiy va Navoiylar ta’riflagan, o‘zlari ijro etgan va takomillashtirgan musiqiy cholg’ular, ularning turlari, yaratilish jarayoni va rivojlanish tarixidan boxabar bo‘lmoqdalar.


Ayniqsa, “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivallari doirasida mazkur katalogning taqdimoti o‘tkazilganidan so‘ng, barcha xorijiy mutaxassislarning ham etirofiga sazovor bo‘lgan hamda u xorijiy hamkasblarimiz uchun o‘z milliy cholg’ulari katalogini yaratish uchun metodologik asos vazifasini bajararmoqda.

Mazkur katalog O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 15 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan “Eng yaxshi o‘quv adabiyotlari va multimedia asarlari” tanlovida I-o‘ringa sazovor bo‘lgan. Mazkur katalogning analogi bugungi kunga qaqdar yaratilmagan, qolaversa, dunyo miqyosida ham analogi mavjud emas desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbekiston kompozitorlarining 1990-yillarda yaratgan aksariyat asarlarida ma’naviy tiklanish g‘oyasi ilgari surilgan. Shu bois ham bu asarlarda ko‘proq o‘tmish manbalarga, xalq qahramonlariga murojaatlar, Vatanga bo‘lgan muhabbat kabi mavzularning ustivorligi kuzatiladi. Bu jarayon Mustafu Bafoyev asarlarida ham o‘z aksini topgan. Bunga M.Bafoyevning “Buxoroi-Sharif” teleoperasi misol bo‘la oladi. Ushbu asarning yuzaga kelishi xalq cholg’ulari orkestri ijrochiligi tarixida yangilikdir. Teleopera orqali orkestr dramatik funksiyalarni bajarishga ham jalb etildi. Shu bilan birga epik shakldagi qahramonlarni ham ta’riflab berdi.


Bunday asarlar xalq cholg’ulari orkestrida azaldan muammo bo‘lib kelgan repertuar masalasini ma’lum darajada hal qilishga, qolaversa, orkestr ijrochiligini keng ommalashishiga ham ko‘mak berdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. “Buxoroi-Sharif” teleoperasi orkestr ijrosiga xos go‘zal an’analarni o‘zida mujassam etgan, milliy ruh bilan yug‘irilgan yoqimli tarannunga ega asarlardandir.

M.Bafoyev o‘z kompozitorlik mahorati bilan yevropacha shakllarni Sharqona mazmun bilan uzviy bog‘laydi, ya’ni yevropacha madaniyatni Sharq madaniyati bilan chambarchas bog‘lash natijasida ajoyib asarlar yaratilishi mumkinligini o‘z ijodi orqali isbotlaydi [2, 5]. Vatan, tarixiy voqealar, tarixiy qahramonlar, buyuk shaxslar va tarixiy obidalarni madh etuvchi qator asarlarning yaratilishi shular jumlasidandir.



Azatgul Tashmatova tomonidan 2007 yilda Mustafa Bafoyevning teleoperasi asosida yaratilgan “BUXOROI-SHARIF” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi 2 doston va 22 naqshdan iborat bo‘lib, oliy o‘quv yurtlarida “Dirijyorlik” fanida keng qo‘llanilmoqda. Shuningder ushbu asar nafaqat ilmiy, balki ma’naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanmadan joy olgan asarlar ham ijro ham dirijyorlik jihatdan juda qiziqarli va hammani oziga jalb eta olishi bilan, nafaqat mutaxassislar, balki keng qamrovli tinglovchilar qalbidan ham chuqur joy olgan.

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanmada 22 ta mustaqil asarning ijrochilik va dirijyorlik nuqtai nazardan tahlili berilgan. Iqtidorli kompozitor o‘z mahorati orqali xalq cholg‘ulari orkestridan unumli foydalangan holda uning turli qirralarini ochib berishga muvassar bo‘lgan. A.Tashmatova esa orkestr ijrosi va asarlarning mazmun-mohiyatini shu darajada yoritib berganki, ijroni ko‘rmay eshitgan tinglovchi ba’zi-bir asarlarni orkestr emas, balki xalq cholg‘ulari ansambli ijro etgan deb tahmin qiladi, jonli tarzda ko‘rib tinglaganlar esa kompozitorning milliy cholg‘ular tabiatini shu darajada chuqur bilganligiga lol qoladi. “BUXOROI-SHARIF” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanma oliy o‘quv yurtlari va O‘zbekiston davlat konservatoriyasi o‘quv amaliyotida keng qo‘llanilibgina qolmay, balki doktorant va mustaqil izlanuvchilar uchun ilmiy manba sifatida xizmat qilmoqda. Shu bois, A.Tashmatova tomonidan 2012 yilda o‘quv-uslubiy qo‘llanma asosida o‘quv qo‘llanma (ikkinchi nashr) yuzaga keldi. Mazkur nashrda Mustafa Bafoyevning hayoti va ijodiga alohida urgu berilgan.



“Xalq cholg‘ulari antologiyasi” o‘quv qo‘llanmasi A.Tashmatova tomonidan 2014 yilda nashr ettirilgan bo‘lib, unda cholg‘ularga taalluqli bo‘lgan barcha ma’lumotlar, jumladan, cholg‘ularning kelib chiqish tarixi, yaratilish va rivojlanish jarayoni, sozlanishi, tuzilishi, cholg‘uning

ommalashuvida jonbozlik ko‘rsatgan ustozlar, har bir cholg‘u bo‘yicha Toshkent (hozirda O‘zbekiston) davlat konservatoriyasida maxsus sinflarning ochilishi, mashhur sozandalar, cholg‘u uchun yaratilgan maxsus asarlar, o‘quv adabiyotlari hamda sozgar ustalar haqida atroflicha ma’lumotlar berilgan [3, 4]. O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasida “Cholg‘ushunoslik”, “Turdosh cholg‘ular”, “Xalq cholg‘ulari bilan tanishuv”, “Xalq cholg‘ularida o‘qitish uslubiyoti”, “Ijrochilik san’ati tarixi”

kabi fanlar bo'yicha amaliyotga keng joriy etilgan. Shuningdek, mazkur o'quv qo'llanma talabalarning dunyoqarashini boyitib, maxsus fanlar haqidagi bilim doirasini yanada kengaytiradi, qolaversa cholg'ularni o'rganishga bo'lgan qiziqishini yanada orttiradi

Mazkur monografiyada Doni Zokirov nomidagi Davlat xalq cholg'ulari orkestrining shakllanish tarixi, serjabha kechgan ijodiy faoliyati hamda erishgan yutuqlari imkon qadar yoritilgan. Bunda orkestrning ijrochilik faoliyati uning oldida turgan muhim vazifa va dolzarb muammolar yechimi nuqtai nazaridan uch davrga bo'lib o'rganilgan. Shunga muvofiq har bir davrda mavjud orkestr tarkibi, boshqargan dirijyorlar faoliyati, ijro repertuarining qamrovi, "Oltin fond"[4, 176] uchun yozilgan va hozirgi kungacha o'z qiymatini yo'qotmatgan bir qator asarlar ijrochilik kesimida tahlil qilingan.

Mutaxassislariga ma'lumki, orkestrning xilma-xil repertuarida jamoa uchun maxsus yaratilgan asarlari qatorida orkestr uchun moslashtirilgan va qayta ishlangan xalq kuylari ham salmoqli o'rin tutadi. Shu bois, tahlillar jarayonida «oddiydan – murakkabga», «kuy-qo'shiqdan – yirik asarlarga» tamoyiliga amal qilingan holda asarlarning asosiy g'oyasi, ijrochiligi bilan bog'liq muammolari, yangi tembr izlanishlari va dinamik tuslanishi kabi holatlarga asosiy e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga xalq cholg'ulari orkestrini tuzishda an'anaviy va yangi ko'rinishdagi jamoaviy ijrochilik uslublarini mohiyatan payvasta etish harakatlari ham e'tibordan chetda qolmagan.

Orkestrning ijodiy faoliyatini yoritishda «Oltin fond»da saqlanayotgan asarlar tinglovi va jamoa konsertlaridan olingan jonli taassurotlar qatorida Markaziy davlat arxivi, Toshkent shahar arxivi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va O'zbekiston teleradiokompaniyasi arxivlaridan olingan ma'lumotlar, shuningdek, jamoaning keksa sozandalari, badiiy rahbarlari, dirijyorlari hamda taniqli musiqashunos olim va kompozitorlar bilan muntazam o'tkazilgan suhbatlar, qolaversa «Davlat noyob ilmiy ob'ekti» hujjat va eksponatlari qimmatli axborot manbalari o'laroq muhim ahamiyat kasb etgan.

Mazkur monografiya "Ijrochilik san'ati tarixi" fanida talabalar tomonidan katta qiziqish bilan mutolaa qilinmoqda. Shuningdek, professor-o'qituvchilar uchun o'quv qo'llanma, darslik yoki monografiyalar yaratishida, doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilar uchun ilmiy manba sifatida xizmat qilmoqda. Eng asosiysi Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholg'ulari orkestrining 57 yillik ijodiy faoliyati haqidagi Monografiya yagona ma'lumotlar bazasi sifatida tarixga muhrlandi va kelajak avlod uchun meros bo'lib qoldi.


O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgach boshlangan yangi davrda fan va texnika taraqqiyoti, adabiyot va san'at ravnaqi, milliy qadriyatlar rostlanishi uchun keng imkoniyatlar yuzaga keldi. Shu jumladan, musiqa san'ati jabhasida yangidan yangi ijodiy jamoalarning shakllanishiga muhim zamin hozirlandi. Ana shunday sharoitda, aniqrog'i 1991 yilning sentyabr oyida "So'g'diyona" Davlat xalq cholg'ulari kamer orkestri tashkil topdi.



Qadimiy an'analarni qayta tiklab, ularga zamonaviy ruh bag'ishlashga intilayotgan, musiqa orqali turli xalqlar o'rtasida do'stona aloqalarni mustaxkamlashga bel bog'lagan ushbu jamoa turli festivallar, ko'rik-tanlovlar va anjumanlarda faol ishtirok etib, milliy musiqa san'atining yangi davrdagi rivoji hamda uni jahon uzra keng targ'ibiga katta ulush qo'shib kelmoqda [5, 11].

Mazkur monografiya O'zbekistonda ilk bora yangi

tarkibda tashkil etilgan jamoaning 25 yillik ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan bo'lib, unda "So'g'diyona" davlat xalq cholg'ulari kamer orkestrining ilk faoliyati, orkestr dirijyori Firuza Abdurahimova ijodiga chizgilar, O'zbekiston kompozitorlarining asarlari orkestr talqinida, Yevropa mumtoz musiqasi, xorijiy safarlar, turli jamoalar bilan hamkorlik rishtalari hamda orkestrning mohir sozandalari haqidagi qimmatli ma'lumotlar o'z aksini topgan.



Azatgul Tashmatova tomonidan 2017 yilda nashr etilgan mazkur ilk darslik yangi avlod o'quv adabiyotlari toifasiga kiradi. "Ijrochilik san'ati tarixi" fani bo'yicha yaratilgan darslikdan Qadimgi davr musiqqa madaniyati cholg'ulari, XX asrning 20-30 yillarida o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik, o'zbek xalq cholg'ularini modernizatsiyalashtirishning g'oyaviy asoslari, ularda professional ta'limning yuzaga kelishi, O'zbekistonda xalq cholg'ulari orkestri – ijrochilikning yangi shakli, 1960-1990 yillar hamda mustaqillik yillarda o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati, To'xtasin Jalilov nomidagi davlat Akademik xalq cholg'ulari orkestri, Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholg'ulari orkestri, "So'g'diyona" Davlat xalq cholg'ulari kamer orkestrlarining ijodiy faoliyatlari [6, 246], qolaversa ijrochilik san'ati bilan bog'liq bo'lgan barcha ma'lumotlar joy olgan.

Darslik ilg'or pedagogik texnologiyalarga tayangan holda nashr ettirilgan va barcha ma'lumotlar kompakt-disk shaklida ham ilova qilingan. Unga darslikning kitob shakliga keltirilgan to'liq matni, orkestrlarning ijro dasturidan namunalar, asarlarning nota ko'rinishlari hamda audio yozuvlari, testlar, musiqiy krossvordlar, yetakchi professor-o'qituvchilarning turli tillarda yozgan kitoblari hamda maqolalar to'plamlaridan namunalar, kabilarning elektron nusxalari, shuningdek O'zbekiston sozgarlik san'ati tarixiga va mohir ustalar maktabiga bag'ishlangan musiqiy hujjatli filmlar kiritilgan.

Ushbu darslik talabalarning "Ijrochilik san'ati tarixi" haqidagi bilimlarini yanada oshirishga hamda ijrochilik mahoratini yuksalishiga xizmat qilmoqda. Darslikdagi bir qator mavzular ustozimizning hayotiy tajribalari, jamoalardagi konsert ijrochilik faoliyati, "Milliy cholg'u" ilmiy-ishlab chiqarish eksperimental laboratoriyasidagi ish jarayoni hamda shu kunga qadar egallagan bilimlari asosida yozilganligi tufayli matn ravon va barchaga tushunatli tilda bayon etilgan. Bu ham bo'lsa A.Tashmatova ijodiy faoliyatining yangi qirralaridan birini namoyon etadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozim-ki, Azatgul Tashmatova tomonidan nashr etilgan darslik, o'quv qo'llanma va monografiyalar aynan maxsus fanlar asosida yaratilgan bo'lib, ularning barchasi o'quv jarayoniga keng joriy etilgan. Rang-barang va qiziqarli tarzda nashr yuzini ko'rgan ushbu o'quv adabiyotlari talabalar dunyoqarashi va fikrlash doirasini kengaytiribgina qolmay, balki ularni kitob o'qishga, qolaversa ilmiy-tadqiqot ishlarini yozishga bo'lgan qiziqishini uyg'otishi tabiiydir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tashmatova A. Musiqiy cholgular muzeyi Katalogi. T., 2006.
2. Tashmatova A. Buxoroi-Sharif (M.Bafoyev teleoperasi). T., 2007.
3. Tashmatova A. "Xalq cholg'ulari antologiyasi". T., 2014.

4. Ташматова А. Дони Зокиров номидаги давлат халқ чолғулари оркестри. Монография. Т., 2015.
5. Ташматова А. Сўғдиёна давлат халқ чолғулари камер оркестри. Монография.Т., 2016.
6. Tashmatova A. Ijrochilik san'ati tarixi. Darslik. Т., 2017.